

OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISHIDA MARKETING FAOLIYATINING O'RNI

Berdimurodova Ma'mura Axmad qizi

1-son respublika Abu Ali ibn Sino tibbiyot texnikumi o'qituvchisi

Email: @mberdimurodova

Annotatsiya. Mazkur tezisda Toshkent shahridagi oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan marketing tadqiqotlari natijalari tahlil qilinib, ta'lim xizmatlari rivojlanishiga ta'sir ko'rsatayotgan asosiy omillar yoritilgan. Tadqiqot davomida talabalar va professor-o'qituvchilar o'rtasida onlayn so'rovnomalar, intervyular hamda fokus-guruhlar tashkil etildi. Natijalarga ko'ra, o'quv jarayoni sifati, professor-o'qituvchilarning malakasi, moddiy-texnik baza, o'quv adabiyotlari va elektron resurslar, amaliyot jarayoni, korrupsiya holatlari hamda talabalar ehtiyojlari oliy ta'lim xizmatlarining samaradorligiga bevosita ta'sir etayotgan omillar sifatida belgilandi. Maqolada shuningdek, ta'lim sifatini oshirish, infratuzilmani yaxshilash, o'quv resurslarini boyitish, amaliyotni samarali tashkil etish va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. Oliy ta'lim, ta'lim sifati, professor-o'qituvchi malakasi, moddiy-texnik baza, elektron resurslar, o'quv adabiyotlari, talabalar ehtiyoji, amaliyot jarayoni, korrupsiya, marketing tadqiqotlari.

Abstract. The article analyzes the results of marketing research conducted in higher education institutions in Tashkent, focusing on the key factors influencing the development of educational services. The study involved online surveys, interviews, and focus group discussions with students and faculty members. The findings revealed that the quality of the educational process, faculty qualifications, material and technical resources, educational literature and electronic platforms, internship practices, corruption issues, and students' needs are the major determinants of higher education service effectiveness. The article also provides practical recommendations aimed at improving the quality of education, strengthening infrastructure, enriching educational resources, enhancing internship programs, and combating corruption in the higher education system.

Keywords. Higher education, quality of education, faculty qualification, material and technical resources, electronic resources, educational literature, student needs, internship practices, corruption, marketing research.

TAHLIL. Oliy ta'lim xizmatlari rivojlanishiga ta'sir qilayotgan omillarni aniqlash va ularning yechimi bo'yicha tegishli taklif va tavsiyalar berish maqsadida Toshkent shahrida joylashgan OTT talabalari, magistratura talabalari, professor-

o'qituvchilari o'rtasida onlayn so'rovnoma o'tkazdik. Zero, marketing tadqiqotlari orqali tashkilot va korxonalar o'zlarining marketing faoliyatining holati va xususiyatlari bo'yicha o'rganish ishlarini amalga oshirsa bo'ladi. Ushbu so'rovnoma Toshkent shahri faoliyat yuritayotgan 10 ta OTTlari rahbariyatiga talabalar va professor-o'qituvchilardan onlayn so'rovnoma o'tkazishga xat va so'rovnomaning ilova qilgan tarzda yetkazildi. Bundan tashqari tadqiqotimizda og'zaki so'rov (intervyulash), talabalar va professor-o'qituvchilar o'rtasida "fokus-guruhlar" tashkil etildi.

Ushbu so'rovnoma, intervyu va fokus-guruhlarda savol-javoblarni talabalar o'rtasida o'tkazishimizdan maqsad, bizning iste'molchilarimiz talabalaridir. Talabalar ehtiyojini qondirilish darajasini o'rganish oliy ta'lim xizmatlar bozorida o'tkaziladigan marketing faoliyatining asosiy yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. Professor-o'qituvchilar esa bir vaqtning o'zida tadqiqotimizda ekspert sifatida ham qanday taklif bersa, biz shularni inobatga olib xizmat ko'rsatishni yanada takomillashtirsak maqsadga muvofiq bo'ladi. OTTlar faoliyatini takomillashtirish, ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini baholash maqsadida Toshkent shahridagi 10 ta OTTlari, ya'ni, Oriental universiteti, Alfraganus universiteti, Toshkent davlat arxitektura universiteti, Toshkent davlat agrar universiteti, Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, Nordik xalqaro universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston san'at va madaniyat instituti va UBS universitetining 1018 nafar bakalavr va magistratura talabalari, 61 nafar professor-o'qituvchi o'rtasida oliy ta'lim xizmatlarini rivojlantirishning marketing faoliyatini takomillashtirish va marketing tadqiqotlarini o'tkazdik. O'tkazilgan marketing tadqiqoti so'rov usulining onlayn shaklidan foydalandik.

Ushbu so'rovnomada bakalavrlar ham, magistrlar ham qatnashishdi. Unga ko'ra jami ishtirokchilar 1018 nafar bo'lib, ular 952 nafari, ya'ni 93,5 % dan ko'prog'i bakalavriat talabalari, hamda 66 nafari, ya'ni atigi 6,5 % magistrantlar ishtirok etganligi ma'lum bo'ldi.

So'rovnoma javoblarini tahlil qilar ekanmiz, har bir qatnashgan talaba tahsil olayotgan OTTdagi o'qitish jarayonlari, o'quv xonalarining moddiy texnik bazasi holati, ya'ni auditoriyalarning jihozlanishi, ARMning adabiyotlar bilan ta'minlanganligi, dars berayotgan professor-o'qituvchilarning professional malakasi, talabalarga ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlardan talabalar ehtiyojining qondirilish darajasi, ta'lim xizmatlari sifati bo'yicha so'rovda ishtirok etgan talabalar turli-tuman fikrlarni bayon etishgan.

Tadqiqotimizda berilgan "Siz tahsil olayotgan oliy ta'lim tashkilotida o'quv jarayonining tashkil etilishini qanday baholaysiz?" degan savolga so'rovda ishtirok etgan talabalarining 68,2 foizi yaxshi, 20,1 foiz talabalar qoniqarli, 10,5 foiz juda yaxshi va 1,3 foiz yomon deb baholashgan.


So'rovnomadagi "Siz tahsil olayotgan oliy ta'lim tashkilotida dars berayotgan professor-o'qituvchilarning professional malakasini qanday baholaysiz? Degan savolga so'rovda ishtirok etgan talabalarning 71,6 foizi yaxshi, 19,3 foiz talabalar juda yaxshi, 8,5 foiz qoniqarli va 0,6 foiz yomon deb baholashgan.

OTTdagi moddiy texnik bazasi holatini nega bunday baholanganligini sababini keltiring degan savolga talabalarimiz juda ko'pchiligi e'tirozli sabablar keltirishgan. Jumladan, tahsil olayotgan auditoriyalar OTT talabiga mos jihozlanmaganligi, stol-stul talabalarga mos emasligi, xonalar kichikligi, stol-stul yetishmasligi, internet tarmog'i talabalar uchun yaratilmaganligi, bori ham yaxshi ishlamasligi, qish mavsumida xonalar sovuq, issiq kunlarida xonalar ham isib ketishini, arzonlashtirilgan talabalar oshxonasi yo'qligini, oshxonalarning sig'imi kichikligi, mavjud uskunalar ham foydalanishga ruxsat etilmaganligi, ayrim o'qitiladigan fanlardan adabiyotlarning yetishmasligi, kontrakt to'lab o'qiydigan sharoit emas deganlar ham borligi, kompyuterlar yetishmasligi, kollejga mo'ljallangan binoda o'qishligi, eski binoda o'qishligi, hali yangi bino bitmaganligi, shuning uchun sharoit yo'qligi, sanuzellarning binolarda yo'qligi va yetishmasligini ko'rsatib o'tishgan. Qatnashgan talabalarning 18,6 foizi sharoitlar hozirgi zamonaviy OTT talabida emas degan e'tirozlarni berishgan. Ayrim talabalarimiz amaliy darslar utish uchun jihozlar yetishmasligi sababli darslarning hammasi nazariy o'tilishini ham ta'kidlab o'tganlar. E'tirozlarning ko'pi kompyuterlarning yetishmasligi va fanlarga doir adabiyotlarning yetishmasligini aytganlar. Ayrimlar o'qitish talab darajasida emas, binolarni rekonstruksiya qilishga kelib qolganligini ham aytib o'tganlar.

So'rovnomada moddiy texnik bazasi holatini baholashda e'tirozlar bilan birga yaxshi tomonlarini ham ko'rsatib o'tishgan. Yangi binoda tahsil olayotganligi sababli sharoitlar yaxshi, auditoriyalar zamon talabiga mos jihozlanganligi, hamma imkoniyatlar yetarliligini, ilg'or texnologiyalar bilan jihozlanganligi, ayniqsa, "Ipak yo'li" xalqaro turizm va madaniy meros universiteti talabalari sharoitlar yaxshiligini aytib o'tganlar. Ayrimlar OTT hamma qulayliklarga egaligi, shuning uchun ta'lim sifati yaxshiligini ham aytib o'tishgan.

Onlayn so'rovnomamizning navbatdagi savolida oliy ta'lim tashkilotlarida taqdim etilayotgan o'quv materiallari (darsliklar, ma'ruzalar matni amaliy mashg'ulot topshiriqlari, oliygohlarning targ'ibot holati, brend qiymati) va Hemisga joylangan resurslarning sifatini 64,2 foiz so'rovda ishtirok etgan talabalar yomon deb baholashgan, 30,1 foizi yaxshi, 3,6 foiz qoniqarsiz va 2,1 foiz juda yaxshi deb baholashgan. Mazkur savol doirasida talabalar o'zlarining takliflari va fikrlarida asosan Hemisga joylangan resurslardan qoniqmasligi, fan o'qituvchilari topshiriqlarni o'z vaqtida joylashtirmasligi, mustaqil o'zlashtirish uchun resurslarni joylashtirilmasligi, ma'ruzalar matni eskiligi talabalar tomonidan ta'kidlab o'tishgan.

Talabalarning ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini o'rganish maqsadida berilgan “Sizning o'quv jarayonidagi eng asosiy ehtiyojlaringiz nimalardan iborat?” degan savolimizga so'rovnomada ishtirok etgan 35,7 foiz talabalar yangi va sifatli o'quv materiallarga bo'lgan ehtiyojlarini ko'rsatishgan bo'lsa, 30,1 foiz talabalar Interaktiv va zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishiga bo'lgan ehtiyojlarini ko'rsatib o'tishgan (2.3-rasm).



2.3-rasm. Talabalarning ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlari, %¹.

Keltirilgan ilovadagi javoblarni tahlil qiladigan bo'lsa, talabalar fikricha birinchi ko'rsatkich bo'yicha, ya'ni professor-o'qituvchilar darsini slaydlar namoyish qilish yoki ma'lumotlarni doskada sxematik tasvirlash orqali olib borishi to'g'risida 330 nafar talaba 32,4 foiz o'qituvchilar shu shaklda o'tadi deb belgilagan bo'lsa, 510 nafar talaba 26%dan 50% gacha shu shaklda dars mashg'ulotlari o'tadi degan javobni belgilagan. 408 nafar talabalar esa 51%dan 75%gacha o'qituvchilar slaydlar orqali dars mashg'ulotini o'tkazadi deb belgilagan bo'lsa, 236 nafar talabalar 76%dan 100%gacha o'qituvchilar shu shaklda o'tkazadi deb belgilagan.

Onlayn so'rovnomaning navbatdagi savoli “O'qish jarayonida eng katta qiyinchiliklar yoki muammolar sifatida nimalarni keltirib o'tasiz” deb nomlangan savol orqali talabalarimizning zamonaviy bilim olishlari uchun tusqinlik qilayotgan asosiy omillar nimalar ekanligi haqida edi.

¹ So'rovnoma natijalari tahlili asosida muallif ishlanmasi.

Bu savolimizga jami 759 nafar talaba ishtirok etib, ularning 21,2 % pedagoglarning bilimi va malakasining past darajada ekanligini asosiy omillardan deb hisoblashsa, 23,4% talabalarimiz ta'limda korrupsiyaning, ya'ni mahalliychilik, urug'-aymoqchilikning borligi deb hisoblashgan. Onlayn so'rovnomada qatnashgan 19,8% talabalarimiz moddiy sharoitning yetarli emasligi deb sabab ko'rsatishgan bo'lsa, 35,6% talabalarimiz talabalarning chet tilini bilmasligi va pedagoglarning talabalar bilan shug'ullanmasligini bilim olishga to'sqinlik qiladigan asosiy omillar deb hisoblasharkan. Bularning hammasi salbiy omillar sanalib, ushbu salbiy omillarni kelajakda bartaraf qilish choralarini ko'rish kerakligini ko'rsatib turibdi.

Nazariy va amaliy bilimlarni chuqurroq berishi va o'quvchilardan talab qilish darajasi yuqori bo'lgan pedagoglar kelajakda yaxshi kadr tayyorlaydi, degan fikrlarni ham olg'a so'rishgan. Bir qancha talabamiz "debat" usuliga o'xshash qilib ko'proq savol-javob tarzida o'tgan dars uslublari yoqadi degan bo'lsa, yana bir o'quvchimiz kreativ pedagoglar yoqadi deb fikr bildirgan. Ortiqcha gap-so'zlarsiz, forma demay, darsini qoyillatib o'tadigan o'qituvchilar ham mavjud, deganlar ham bor. Zamonaviy va milliy usullarni uyg'unlashtirib dars beradigan pedagoglar yoqadi degan bo'lsa, yana biri tyutoring tizimida dars berilsa yaxshi bo'lardi degan. Ko'pchiligi mavzuni tushuntirib uni amalda qo'llanishini o'rgatgan usuli yoqadi degan fikrda bo'lsa, yana bir guruhi darsga bo'lgan qiziqishni uyg'ota olgan, darsga jalb qila bilgan usullardan foydalangan o'qituvchilarning dars berish uslubi yoqadi degan. Shunday pedagoglar borki, darsni shunchalik qiziqtirib o'yin tarzida dars o'tadiki, talabalar ham kirishib ketadi, bunday darslar tushunarli va esda qolarli bo'ladi, degan javoblar ham bor.


Bularni tahlil qiladigan bo'lsak, ko'proq nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lab tushuntirish kerakligi, savol-javoblar tarzida, xushmuomilalik bilan pedagogik texnologiyalardan foydalanib, zamonaviy auditoriyalarda dars o'tish kerakligini aytishgan.

Onlayn so'rovnomamizning yana bir muhim savollaridan biri "Ta'lim xizmatlaridan qoniqishingizni oshirish uchun qanday o'zgarishlar bo'lishi kerak deb o'ylaysiz?" degan savolga juda ko'plab qiziq javoblar yozishgan. Jumladan, bilim darajasi yuqori, malakali ustozlarni ko'paytirish kerakligi, korrupsiya holatlarini yo'qotish kerakligi, auditoriyalarni zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash kerakligi, har tomonlama sharoitlar yaratish kerak deb fikr bildirgan. Ayrimlar talabalarga erkinlik berish kerak desa, ayrimlari talabalarni qattiq nazorat olish kerakligini ham aytishgan. Bilim darajasiga qarab grant yoki kontrakt ekanligini belgilash kerak degan javoblar ham bor. Haftada 3 kun nazariy darslarga ajratilgan va 3 kun olgan bilimlarimizni amaliyotda sinab ko'rsak yaxshi samaraga erishardik va yaxshi yetuk mutaxassis bo'lib yetishardik deganlar ham bor.

Hozirgi ta'lim tizimida juda muhim hisoblangan amaliyot ko'pgina munozaralarga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun biz amaliyotni qay darajada

tashkillashtirilganligini bilish uchun bu masalada talabalarning fikrini bilish maqsadida onlayn so'rovnomaimizda "Siz tahsil olayotgan oliy ta'lim tashkilotida o'quv jarayonidagi amaliyotlarning tashkil etilishini qanday baholaysiz?" degan savol berib, quyidagi, ya'ni amaliyotda mutaxassislikka oid amaliy jarayonlarni o'rgatishadi, standart talabiga mos keladi; amaliyotlar faqat qog'ozda bajariladi, xolos; amaliyot faqat OTTning o'zida o'tkaziladi; amaliyot nomigagina o'tkaziladi degan javoblarni tuzdik. Bunga jami 1003 nafar talaba qatnashib, ular quyidagicha javoblarni belgilaganlar 41,6 foiz talaba qoniqarli, 36,7 foiz talaba yaxshi va 11,3 foiz talaba yomon deb javob qaytarishgan (2.4-rasm).

Amaliyotda mutaxassislikka oid amaliy jarayonlarni o'rgatishadi, standart talabiga mos keladi degan javobni 63 % talabalar belgilagan. Ammo, hozirgi kunda amaliyot tashkil qilinganini 29 % talabalar (amaliyotlar faqat qog'ozda bajariladi, xolos 18 %, Amaliyot nomigagina o'tkaziladi 11 %) salbiy baholagan. Bu degani hozirgi kundagi amaliyot o'tash jarayonidagi har 3 nafar talabadan deyarli 1 nafari qoniqish hosil qilmaydi. Shunday ekan, amaliyot o'tash jarayonida hozirgidek tashkil qilinishi kelajakda o'zini oqlamasligi mumkin. Shuning uchun ham amaliyot o'tash jarayonini ham takomillashtirishimiz lozim.



2.4-rasm. Oliy ta'lim tashkilotida o'quv jarayonidagi amaliyotlarning tashkil etilishiga talabalarni bahosi, %².

Oliy ta'lim tizimida bundan keyin amaliyotni rejalashtirishda talabalarimizning bu fikrlariga amal qilish maqsadga muvofiqdir. Biz oldingi tadqiqotlarimizda haftaning bir qismini nazariyaga va yana bir qismini amaliyotga yo'naltirish kerakligi haqida

² So'rovnoma natijalari tahlili asosida muallif ishlanmasi.

aytib o'tgan edik. Buni biz-ning iste'molchilarimiz bo'lgan talabalarimiz ham shunday fikrda ekanlar.

Oliy ta'lim tizimida amaliyot bilan nazariyani to'laroq uyg'unlashtirish uchun qanday ishlar amalga oshirish mumkinligi haqida quyidagicha takliflar berilgan:

- kafedralarning korxona tashkilotlar bilan nomigagina tuzgan shartnomalarini bekor qilib talabalarga nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashlari uchun kerakli imkoniyatlar va institut rahbariyati va ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi tomonidan amaliyotni nazorat qilib borilishi kerakligi;
- talabalarni chet elga yoki qo'shni davlatlarga amaliyotga jo'natish kerakligi;
- eng avvalo amaliyot rejasini tuzib olish, ushbu reja asosida amaliyot o'tash zarurligi hamda nazoratni kuchaytirish kerakligi;
- tashkilotlar bilan shartnoma asosida talabalarni amaliyot o'tashlariga yordam berish kerakligi;
- bir para dars nazariy keyingisi amaliy dars bo'lishligi;
- birinchi o'rinda talabalarni amaliyotga boradigan joyiga borishi haqida ogohlantirish kerakligi;
- talabalarni o'zlarini yo'nalishlariga mos bo'lgan tashkilotlarga amaliyotga yuborish va u yerda qisman ish haqisiz bo'lsa ham ish bilan ta'minlash va mas'ul shaxsni biriktirish kerakligi;
- ta'lim tizimi 4 kun nazariya 2 kun amaliyot bo'lishi kerakligi;
- talabaga nazariya yozuv-chizuv yukini va soatini kamaytirib o'z sohasi bo'yicha ishlashga imkon yaratib berish va ish topishda alohida tashkilotlar tomonidan ko'mak berilishi kerakligi;
- nazariy darslarni ham amaliyotda ishlaydigan xodimlar berishi kerakligi;
- OTTda sun'iy tashkilotlar moduli yaratilishi kerak hamda bunga pedagoglarni tayyorlash kerak ekanligi;
- o'qituvchilar ham amaliy bilimga ega bo'lishi kerakligi;
- ish haqi to'lab o'rganadigan amaliyot joriy qilinishi kerakligi;
- OTTning o'zida amaliyot joyi tashkil etilishi kerakligi;
- nazariy o'qib o'rgangan darslarini amalda ham to'liq bajarishni o'rganishi kerakligi;
- dastavval ta'lim tizimini joriy etish kerakligi;
- dastavval mutaxassislikka oid fanlarni ko'paytirib o'tish kerakligi, so'ngra nazariya bilan amaliyotni uyg'unlashishi uchun real keyslarga ega ustozlarni jalb qilish kerakligi;
- ishlash jarayonida yuzaga keladigan holatlar bo'yicha ta'limni olib borish kerakligi;

– ta'lim dargohida amaliyot o'tash uchun kerakli jihozlar bilan jihozlangan laboratoriyalarni ko'paytirish kerakligi hamda amaliyotni ushbu laboratoriyalarda olib borilishi kerakligini taklif berganlar.

Bu talabalarimiz tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalarini tahlil qiladigan bo'lsak, asosiy e'tiborni bilim berishga qaratish lozimligini ta'kidlashgan.

So'rovnomamizning keyingi savoliga to'xtaladigan bo'lsak, amaliyot o'quv yili tugagandami, haftadami yoki har kunda bo'lsa yaxshimi degan savolimizda 3 ta javob bo'lib, ushbu savolning javoblari 14-ilovada keltirilgan.

Ushbu ilovada 808 nafar talabalar, ya'ni onlayn so'rovnomada ishtirok etganlarning 73 %i "haftada 4 kun nazariya 2 kun amaliyot reja asosida" degan javobni belgilagan bo'lsa, 201 nafar talabalar, ya'ni 18 % i "o'quv yili oxirida" degan javobni belgilaganlar. 94 nafar talabalar, ya'ni ishtirokchilarning 9 %i "yarim kun nazariya, yarim kun amaliyot" bo'lsin degan javobni belgilagan. Bu javoblarni tahlil qilar ekanmiz, ta'lim jarayoni haftada reja asosida nazariyani 4 kun, amaliyotni esa 2 kun qilib belgilansa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bilim olishni istagan, kelajakda yetuk mutaxassis bo'lmoqchi bo'lgan ushbu talabalarimiz o'qishga ishtiyoqi baland. Yaxshi, sifatli ta'lim olish uchun ushbu takliflarni berayapti. Bu talabalarimiz bergan takliflarni inobatga olib amalda qo'llasak, juda yaxshi natijalarga erishamiz.

Ta'lim tashkilotining sifatli ta'lim berishga ta'sir etuvchi eng asosiy omillardan biri bu o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganligidir. Shuning uchun biz talabalar tahsil olayotgan OTTlarda adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasini bilish va yana adabiyotlar bazasini yaxshilash uchun nimalar qilishi kerakligini bilish maqsadida navbatdagi so'rovnomani "Siz tahsil olayotgan oliy ta'lim tashkilotida o'qitilayotgan fanlardan ARMda darsliklar va qo'llanmalar mavjudligi va ularning sifatini qanday baholaysiz?" degan savolimizga juda ko'p javoblar berilgan. Ushbu javoblarning ichidan yaxshi berilgan takliflarni ajratib oldik. Bular quyidagilar:

- mutaxassisliklar bo'yicha kitoblarni ko'paytirishni va talabalarning qaysi kitoblarga ehtiyoji borligini aniqlab shu kitoblarni shakllantirish kerakligi;
- elektron kitoblarni ko'paytirish;
- yangi nashrdan chiqarilgan adabiyotlar bilan ta'minlash;
- badiiy adabiyotlar bilan ham ta'minlanishi;
- chet el adabiyotlarini tarjimalarini shakllantirish hamda ushbu ishlarga jonbozlik ko'rsatgan tahrirchi va tarjimonlarni rag'batlantirish;
- kitoblar yarmarkalarini ko'proq tashkillashtirish;
- kitobxonlik bo'yicha turli xil ko'rik tanlovlar, musobaqalar, bellashuvlar, qiziqarli tadbirlar tashkillashtirish hamda o'tkazib turish;
- guruhlar o'rtasida kitoblar marafonini o'tkazish;

- qanday kitoblar o'qilish darajasini tahlil qilib, o'sha turdagi kitoblarni ko'proq ta'minlash;
- adabiyotlar bazasini yangilab turish;
- saytga ko'proq kerakli ma'lumotlar va adabiyotlar kiritish hamda saytdan ochiq foydalanishni yo'lga qo'yish;
- OTTlarni kompyuterlar va kitoblar bilan ta'minlash va 7/24 soat ishlashini ta'minlash;
- pedagoglar kutubxonada ishlashning afzalliklarini aytib berish hamda ilm bilan muvaffaqiyatlarga erishgan professorlar, olimlar, hamda kitoblar mualliflari bilan uchrashuvlar tashkil qilishi;
- hammaga 1 ta kitob o'qishga berish kerak keyin hammaga o'sha kitob bo'yicha savol javob o'tkazilib taqdirlash;
- talabalar va o'qituvchilar birgalikda “Kutubxonani boyitamiz” forumini o'tkazish degan tavsiyalarni ham ko'rsatib o'tganlar.

Bilim olishni istagan, kelajakda yetuk mutaxassis bo'lmoqchi bo'lgan ushbu talabalarimiz o'qishga ishtiyoqi baland. Yaxshi, sifatli ta'lim olish uchun ushbu takliflarni berayapti. Bu talabalarimiz bergan takliflarni inobatga olib amalda qo'llasak, juda yaxshi natijalarga erishamiz.

Bundan tashqari, talabalarimiz OTTdagi ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ham juda kerakli taklif va tavsiyalarini berishgan. Bular quyidagilardir:

- darslarni ko'proq mavzuga aloqador yangiliklarga asoslanib o'tish, rivojlangan davlatlar bilan taqqoslash orqali dars o'tilsa, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta'minlangan bo'lsa yaxshi natijaga erishish mumkinligi;
- talabalarni qiziqishini oshirish maqsadida turli xil sport va ma'naviy tadbirlarni ham ko'paytirish;
- ta'lim sifatini oshirish maqsadida dars o'tilayotgan vaqtda hech kim halaqit bermasligi (rektorat, dekanat, tyutorlar davomat masalasida);
- ma'ruza va amaliy darslarni bitta pedagogning o'zi olib borsa, shunda ma'ruza va amaliy darslar birgalikda o'yg'unlashgan holda olib borilishi;
- talabalarning faolligini oshirish maqsadida ko'proq kitob o'qishga, o'z ustida shug'ullanishga jalb qilishi hamda qiziqtirish kerakligi;
- ko'proq speaking usulida darslar o'tilishi;
- ta'limda pedagog-xodimlar hamda talabalar ham chet tilini bilishi;
- amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirib borish;
- malakali professor-o'qituvchilarni ko'paytirish;
- keraksiz fanlarni olib tashlash;
- Zakovat, kitobxonlik tadbirlari ko'proq o'tkazilishi;

- mustaqil ta'limga alohida e'tibor berish kerakligi, bunda o'qituvchi nazariya bersa talabalar o'zlari izlanib amaliy shug'ullansa samarali bo'lishi;
- korxona va tashkilotlardan faoliyat yuritayotgan mutaxassislarni dars berish maqsadida taklif qilish hamda talabalar bilan suhbatlar tashkil qilish;
- ta'lim sifatini yaxshilash uchun ta'limi rivojlangan davlatlar bilan hamkorliklari yo'lga qo'yilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi, deb takliflar berilgan.

Oliy talim tashkilotlarida talim xizmatlari rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilinib, quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, oliy ta'lim xizmatlarini takomillashtirish hamda ta'lim sifatini oshirish uchun eng avvalo talabalarni mustaqil shug'ullanishiga yo'naltirishimiz lozim. Chet el tajribalaridan, hamda O'zbekistonda chet el OTTlarining filiallarida ham talabalar ko'proq mustaqil shug'ullanadilar. Shulardan kelib chiqib biz ham talabalarimizni mustaqil shug'ullanishga yo'naltirsak, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ikkinchidan, masofaviy ta'lim haqida gapiradigan bo'lsak, talabalar aksariyat qismi umuman masofaviy talimdan qoniqmagan. Balkim bizning ta'lim tizimimiz masofaviy ta'limga hali tayyor emasdir. Pedagoglarni oldin bu masofaviy ta'lim nima ekanligiga, Hemis dasturida qanday ishlashga, auditoriyaga kirganda qanday mas'uliyat bilan kirsak, bu dasturda ham ishlashga mas'uliyati oshirish kerakligi haqida tushuntirish ishlari olib borish lozimdir.

Uchinchidan, talabalar bilimni baholashda ayrim adolatsiz pedagoglar hanuz uchrab turishi achinarli hol albatta. Ta'limda sifat va samaradorlik bo'lishi uchun albatta adolatli baholash tizimi bo'lish choralari ko'rilsa, maqsadga muvofiqdir.

To'rtinchidan, hozirgi kunda amalda foydalanayotgan baholash tizimlarimizdan kredit-modul tizimi va baholash tizimi talabalarimiz uchun qulay ekanligini ko'rsatmoqda. Ushbu tizimni kelajakda yanada takomillashtirib qo'llanilsa, maqsadga muvofiqdir.

Beshinchidan, tadqiqotlarimiz ko'rsatdiki, sifatli kadrlarni yetishtirish o'zidan o'zi amalga oshib qolmaydi. Shaxsni davlat va jamiyat nuqtai nazaridan, unga kerak kadr sifatida takomillashtirish uchun uzluk-siz ta'limni yo'lga qo'yishni taqozo qiladi. Buning uchun birinchi navbatda, malakali pedagoglarni shakllantirishni va ularning mehnatini ta'limning sifati va samaradorligini oshirishga qaratish lozimligidan kelib chiqib, malakali kadrlar tayyorlash uchun oliy ta'limda albatta malakali pedagoglar shakllangan bo'lishi lozimligi asoslandi. Bu esa, malakali pedagoglarni tayyorlashni, ularning faoliyatini yaxshi yo'lga qo'yish lozim.

Oltinchidan, oliy ta'lim tizimini boshqarishda yetuk, bilimli, shijoatli kadrlar tayyorlashda yuqori samaradorlik va sifatga erishish uchun boshqaruvchi eng yuqori intellektual salohiyatga, malakaga, insoniy fazilatga ega bo'lishi lozimligi asoslandi. Zero, jamiyatimizning eng aqlli qatlami bo'lgan professor-o'qituvchilardan samarali

foydalana bilish, motivlashtirish usullarini qo'llash lozimligidan samarali foydalanish va bunda adolat mezoniga qattiq rioya qilish lozim.

XULOSA

1) O'zbekiston oliy ta'lim xizmatlar bozorining rivojlanishiga doir bir nechta muhim tendensiyalar oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari sonini, tehsil olayotgan talabalar soni, oliy ta'lim tashkilotlar sonini tahlil qilish orqali aniqlandi. O'zbekiston bo'yicha oliy ta'lim tashkilotlarini bitiruvchi talabalar soni 2019 yildan 2023 yilgacha aniq o'sish ko'rsatmoqda. 2019 yildagi jami 70793 nafar bitiruvchi talabadan 2023 yilda 184133 nafargacha o'sgan. Bu esa 2019-yilga nisbatan bitiruvchi talabalar sonining 160,1 % ga o'sganini, 2019-yilda jami talabalar soni 440991 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 1314542 nafarga yetgan. Bu esa O'zbekiston oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar sonining 2019-yilga nisbatan 2023-yilda o'sish sur'ati 198,0 % ni, 2023-yilda O'zbekistonda 219 ta oliy ta'lim tashkilotlari faoliyat olib borgan. 2019-yilda 119 ta oliy ta'lim tashkiloti faoliyat olib borgan bo'lsa, 2023-yilda 100 taga ko'payganini ko'rsatmoqda.

2. Oriental universitetining marketing muhitiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili asosida yechimlar matritsasi tuzildi. Unda yechimlar to'rtta yuz berishi mumkin bo'lgan: tashqi imkoniyatlar – tashkilotning ichki kuchli tomonlari, tashqi imkoniyatlar – tashkilotning ichki kuchsiz tomonlari, tashqi tahlillar – tashkilotning ichki kuchli tomonlari, tashqi taxdidlar – tashkilotning ichki kuchli tomonlarining birikmasi asoslab berildi.

3. Oliy ta'lim xizmatlari rivojlanishiga ta'sir qilayotgan omillarni aniqlash va ularning yechimi bo'yicha tegishli taklif va tavsiyalar berish maqsadida Samarqand viloyatida joylashgan OTT talabalari, magistratura talabalari, professor-o'qituvchilari o'rtasida onlayn so'rovnoma o'tkazdik. Ushbu so'rovnoma Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan 10 ta OTTlari rahbariyatiga talabalar va professor-o'qituvchilardan onlayn so'rovnoma o'tkazishga xat va so'rovnomaning ilova qilgan tarzda yetkazildi. Bundan tashqari tadqiqotimizda og'zaki so'rov (intervyulash), talabalar va professor-o'qituvchilar o'rtasida “fokus-guruhlar” tashkil etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrda ““O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son farmoni, 28.01.2022 y. <https://lex.uz/docs/5841063>
3. Abdullayeva Zamira Muxtarovna. OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2023-yil, oktabr, 5-8 betlar.

4. Bhandari R., Belyavina R. and Gutierrez R. Student and the Internationalization of Higher Education: National Policies and Strategies from Six World Regions. Institute of International Education, New York, 2011.
5. Gary Armstrong. Philip Kotler. Michael Marker. Marketing in introduction. England, 2016, paperback: 720 pages, Pearson.
6. Journal of Marketing. www.ama.org
7. Journal of Marketing Research. www.ama.org
8. Journal of International Marketing. www.ama.org